

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)
Каланова Сабохат Мурадovна
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Жиянмуратова Гулноз Шербутаевна
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. профессор (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Акмал Гадаймурадovич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат, Кутбидинов Файзиддин РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ О ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ.....	11
2. Karimov Bobir JAMOADA MOTIVATSIYA VA SAMARADORLIK.....	18
3. Mamatov Normurat IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALAR SIYOSIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	28
4. Rasulov Abdimumin SHAXSNING SOTSIAL INTELLEKTUALLIK KO‘RSATKICHLARI VA KAMOLOT OMILLARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	35
5. Xusanova Hayriniso IJTIMOIY NIHOYA TIZIMINING KONSEPTUAL MODEL.....	43
6. Abduxalilov Abdullo NOGIRONLIK FENOMENINI TADQIQ ETILISHINING METODOLOGIK JIHATLARI.....	49
7. Якубов Ильдар КОНЦЕПЦИЯ ГИБРИДНОЙ ВОЙНЫ КАК ФОРМЫ СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНФЛИКТОВ.....	57
8. Abdullayev Akmal O‘RTA ASRLARDA G‘ARBIY YEVROPADAGI DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TUZILMALARIGA OID KONSEPSIYALARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	63
9. Хасанова Мавлюда СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПОСТРОЕНИЯ ГУМАННОГО ГОСУДАРСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	74
10. Jiyanmuratova Gulnoz, Urunboyeva Janona O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISLOHOTLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	80
11. Алимухамедова Нодира ИСТОРИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЭТНОНАЦИОНАЛЬНЫХ КОНЦЕПЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	90
12. Tolipov Abdug‘affor VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNING O‘SIB BORISHIGA TA‘SIR QILUVCHI IJTIMOIY OMILLAR.....	96
13. Berdimuratov Marat YOSHLARNI IJTIMOIY RIVOJLANTIRISH UCHUN OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA SOTSIOLOGIYA FANINI O‘QITISHNI OMMALASHTIRISH.....	104


14. Хамиджонов Умиджон	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ПОНЯТИЙ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ.....	110
15. Ixtiyarov Farxod	
INSON KAPITALINI KEYS-STADI NEGIZIDA TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALAR.....	116
16. Хасанова Мавлюда	
АНАЛИЗ ВОПРОСОВ БОРЬБЫ С БЕДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.....	124
17. Radjabova Aziza	
NATIONAL DEVELOPMENT POLICIES IN THE CONTEXT OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	131
18. Kalanova Sabohat	
JAMIYATDA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING SOTSIAL STRUKTURASI.....	138
19. Ixomjon Xudayarov	
ETNOMADANIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA YUMSHOQ EVOLYUSION MOSLASHUV TENDENSIYASI.....	148
20. Tagaymuratova Gulchehra	
KONSANGUIN NIKOHLAR FENOMENINING IJTIMOY OMILLARI VA BIOETIK YONDASHUVLAR.....	155
21. Jabborov Jaxongir	
YOSHLARNI ISHGA JOYLASHTIRISHNING IJTIMOY XAVFLARI VA TO'SIQLARI: NEET GURUHI, PREKARIZATSIYA, RAQAMLI TENGSIZLIK.....	162
22. Ixtiyarov Farxod	
DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	170
23. Xasanov Sharofidin	
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN QAYTGAN YOSHLARNI IJTIMOY HAYOTGA REINTEGRATSIYALASH: XORIJ TAJRIBASI.....	179
24. Nurulloev Shahriyor	
MILLIY INTERNET-MEDIA SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA VAZIFALARI.....	189
25. Аликариев Нуриддин	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.....	195
26. Alikariyeva A'loxon	
OLIY TA'LIMDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMI INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	202

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Xusanova Xayriniso,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti
sotsiologiya fanlari doktori
e-mail: husanovahayriniso@gmail.com

ИЖТИМОЙ HIMOYA TIZIMINING KONSEPTUAL MODELI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18099390>

ANNOTATSIYA

Maqolada ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar qo'llanilish samaradorligi sotsiologik tahlil qilingan. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniqlash va ularga moddiy ko'mak pullarini ajratish tizimi avtomatlashtirilib, ushbu jarayonda mutassaddi shaxslarning ishtiroki minimallashtirilish yo'llari ko'rsatilgan. Elektron tizim ushbu sohada suiiste'molliklarning oldini olishda raqamli iqtisodiyot yutuqlariga tayangan munosib yechim ekanligi asoslangan. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimining tarkibiy elementlari bo'lgan manfaatdor vazirlik va idoralar o'rtasida to'siqlarsiz axborot hamda zaruriy ma'lumotlarni almashish tizimi ishga tushirish ijtimoiy zarurat ekanligi alohida e'tirof etilgan. "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam tayinlash hamda to'lash mezonlari, ijtimoiy nafaqalarni tayinlashda ustuvorlik daromadi nisbatan pastroq bo'lgan oilalarga berilish zarurati asoslangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, ilg'or modellar, liberal yondashuv, ijtimoiy risk, ijtimoiy ko'mak, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy davlat, subsidiya, dotatsiya.

Хусанова Хайринисо,
и.о. профессора Национального университета
Узбекистана имени Мирза Улутбека
доктор социологических наук
e-mail: husanovahayriniso@gmail.com

КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ

АННОТАЦИЯ

В статье проведен социологический анализ эффективности применения инновационных подходов к совершенствованию системы социальной защиты. Автоматизирована система выявления социально незащищенных слоев населения и выделения им денег на материальную поддержку, намечены пути минимизации участия должностных лиц в этом процессе. Он основан на том факте, что электронная система является достойным решением, основанным на достижениях цифровой экономики в предотвращении злоупотреблений в этой области. Отдельно отмечена социальная необходимость внедрения системы беспрепятственного обмена информацией и необходимой информацией между заинтересованными министерствами и ведомствами, являющимися структурными элементами системы социальной защиты населения. Критерии назначения и выплаты

социальных пособий и материальной помощи малообеспеченным семьям через информационную систему “Единый реестр социальной защиты”, приоритет при назначении социальных пособий отдается семьям с относительно низким доходом.

Ключевые слова: социальная защита, продвинутые модели, либеральный подход, социальная нестабильность, социальные риски, социальная помощь, социальная работа, социальная страхование, социальная справедливость, социальное государство, социальное благосостояние, субсидия, дотация.

Khusanova Khayriniso,
Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirza Ulugbek,
Doctor of Sociological Sciences
e-mail: husanovahayriniso@gmail.com

CONCEPTUAL MODEL OF SOCIAL PROTECTION

ABSTRACT

The article presents a sociological analysis of the effectiveness of innovative approaches to improving the social protection system. The system of identifying socially vulnerable segments of the population and allocating money to them for material support has been automated, ways to minimize the participation of officials in this process have been outlined. It is based on the fact that the electronic system is a worthy solution based on the achievements of the digital economy in preventing abuse in this area. The social necessity of introducing a system of unhindered exchange of information and necessary information between interested ministries and departments, which are structural elements of the social protection system, was separately noted. Criteria for the appointment and payment of social benefits and material assistance to low-income families through the information system "Unified Register of Social Protection", priority in the appointment of social benefits is given to families with relatively low income.

Keywords: social protection, advanced models, liberal approach, social instability, social risks, social assistance, social work, social insurance, social justice, welfare state, social welfare, subsidies, subsidies.

KIRISH

Sotsiologiyada ijtimoiy himoya tushunchasining nazariy model sifatidagi tahlilida ijtimoiy davlat konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Zero, ushbu konsepsiyada ijtimoiy himoya shaxsning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlashda tahlikalarning oldini olish omili sifatida talqinlanadi. Davlat muassaslari, ish beruvchilar, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar tomonidan jamoatchilik fikri e'tiborga olingan holda fuqarolarning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ehtiyojlarini qondirish yo'lida davlatning ijtimoiy strategiyasini shakllantiradi. Fuqarolarning turmush darajasi va sifatini oshirishda samarali qarorlar qabul qilish hamda ularning amaliyotiga qaratilgan chora-tadbirlar, xatti-harakatlarning majmuasi hosil qiladi. Bunday yondashuv davlat resurslari hisobiga aholining turmushini yaxshilash darajasini qo'llab-quvvatlashga asoslanadi.

Ijtimoiy siyosat davlat ichki siyosatining muhim komponenti sifatida uning “ijtimoiy doktrinasi” yoki “ijtimoiy taraqqiyot konsepsiyasi”ni yoki davlat strategiyasini o'zida ifodalaydi. Ijtimoiy himoya tizimi esa davlat ijtimoiy siyosatining zaruriy komponenti sifatida aholining ijtimoiy xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida ijtimoiy qadriyat maqomida bo'ladi.

Ijtimoiy himoyaning boshqa sohalar, xususan, ishlab chiqarishdan farqli jihati shundaki, inson ijtimoiy himoya atrofida quriluvchi o'zaro munosabatlar vositasi emas, balki bosh maqsadi maqomida bo'ladi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “...inson, uning haq-huquqlari va baxt saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadi bo'lishi lozim. Jamiyat qurilishi va davlat siyosati ana shu g'oyaga tayanishi hamda “davlat – inson uchun” tamoyili asosida tashkil etilishi darkor”, – degan so'zlari ayni muddaodir [1].

“Ijtimoiy himoya” ilmiy kategoriya sifatida birgina sotsiologiya doirasida qolmaydi va falsafa, tarix, sotsiologiya, iqtisodiyot, demografiya, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, psixologiyada fanlararo

tadqiqotlarga turtki beradi. Bu akademik ilm-fan doirasida yaqqol sezilmoqda va aholini ijtimoiy himoyalashning zamonaviy mazmun-mohiyatini anglashda integratsiyalashgan ilmiy yondashuvlarning kompleks ahamiyatli obyekti sifatida dolzarblashmoqda. Zero, ijtimoiy himoya ijtimoiy-gumanitar fanlarning universal obyekti sifatida bitta fan doirasida muxtor qola olmaydi. Aksincha, multidissiplinar, ya'ni ko'p qirrali metodologiyaga tayanadi. Ijtimoiy himoyaning ko'p predmetli xususiyatlari multidissiplinar yondashuvlarning sara an'alariga muvofiq o'zaro aloqadorlikda tadqiq etiladi. Bunda turli fanlarga xos metodologik va terminologik avtonomlikdan chekinilib, umummetodologik yondashuvlarning universal muvofiqlashuvi sodir bo'ladi.

Metodologiya. Mumtoz sotsiologiyada ijtimoiy himoya jamiyat ijtimoiy tuzilmasida mustahkam o'rinishgan soha sifatida institutsional yondashuvni shakllantirdi. G.Spenser ijtimoiy institutlar paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun jamiyat hamda inson tomonidan unga kuchli ehtiyoj tug'ilishi kerak, deb biladi [2]. Ushbu yondashuvga muvofiq jamiyat tuzilimasidan mustahkam o'rin olgan ijtimoiy himoya institutlari o'rtasida zich aloqadorlik mavjud. Bunda aholini ijtimoiy himoyalash jamiyat va davlat hayotida mustahkam o'rinishgan institutsional tushuncha ekanligi asos qilib olindi.

M.Veber zamonaviy jamiyatlarda notekis taraqqiyot ijtimoiy stratifikatsiya uchun qulay muhitni shakllantiradi, deb biladi [3]. Uningcha, ijtimoiy farovonlik va ijtimoiy taraqqiyot o'zaro aloqadorlikdagi tushunchalar bo'lib, daromadlarning notekis taqsimoti nochor qatlamlarni shakllantiradi. Ijtimoiy stratifikatsiya jamiyat ierarxiyasida turli maqomlarni egallab turgan individning hayotiy muhim imkoniyatlarga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. P.Sorokin ijtimoiy stratifikatsiyaning shakllanishini huquq va imtiyozlar, hokimiyat va ijtimoiy qadriyatlarining notekis taqsimotida ko'radi [4]. Uningcha, ijtimoiy stratifikatsiya iqtisodiy, siyosiy va kasbiy iyerarxiyada kishining egallagan maqomidan qoniqmaslik holati sanaladi. Ammo, bizga ma'lumki, zamonaviy bozor iqtisodiyotida moddiy boylik va daromadlar taqsimoti bir tekis emas. Bunday taqsimot har qanday jamiyat taraqqiyotiga xavf tug'diruvchi o'ta boy va qashshoq qatlamlarni shakllantiradi. Oqilona ijtimoiy muhofaza tizimi esa xuddi shunday keskinlikni yumshatishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi o'rta qatlam barqarorligini ta'minlashi mumkin.

E.Dyurkgeym (1858-1917) zamonaviy jamiyatlarda shiddatli va jadal o'zgarishlar kuchli ijtimoiy mashaqqatlar bilan parallel holda kechishini aniqladi [5]. Ijtimoiy me'yorlar va institutlarning disfunktsional holatida huquqiy hamda axloqiy me'yorlarning parchalanishi kuzatilib, anomiya hodisasi sodir bo'ladi. Unga ko'ra, muayyan ijtimoiy shart-sharoitlar oqibatida shakllangan tengsizlik individda "mavjudlikdan maqsad yo'q"likni his etishiga sabab bo'ladi. Bunday holatlarning oldini olish uchun Dyurkgeym jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi kasbiy uyushmalarni tashkil qilish taklifini ilgari suradi [6].

Krizisli va o'tish davrida ijtimoiy-iqtisodiy nochor qatlamlarda anomiya kuchli kuzatiladi va ijtimoiy himoyaga bolgan ehtiyojni oshirib yuboradi. E.Meyo (1880-1949) mehnat taqsimoti va boshqaruvdagi noratsionallik, byurokratik usul hukmronligi individlar o'rtasida keskin tabaqalanishga turtki bo'lishini ko'rsatib beradi [7]. Natijada anomiya hodisasi sodir bo'lib, ijtimoiy muhitni murakkablashtirish orqali shaxsning ijtimoiy maqomini tushib ketishiga olib keladi. Shaxsning hayotiy muammolarini mustaqil holda hal qilish imkoniyati tushib ketadi va sotsiumning salbiy ta'siridan himoyalanganlik hissini keltirib chiqaradi.

Neoklassik maktab namoyondalari A.Marshall va A.Pigu ijtimoiy stratifikatsiyada keskin tafovut bois ijtimoiy himoyaga muhtojlik darajasi oshib borishini ko'rsatadi [8]. Xuddi shunday sharoitda davlat ijtimoiy jarayonlarni nazorat qilishi va barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashida bosh subyekti sifatida J.Keyns ishlarida o'z ifodasini topdi. Davlat aholi bandligini ta'minlash va o'z fuqarolari turmush darajasini oshirish orqali turli krizislardan chiqib olishi mumkinligi ilmiy asoslab berildi.

Ijtimoiy himoya tizimini sotsiologik modellashtirish, prognozlash va uning strategik maqsadlarini belgilashda tizimli yondashuvning ahamiyati katta bo'ldi. T.Parsons jamiyatni turli tuzilmalarning funksional integratsiyalashgan yaxlit tizim sifatida tavsiflaydi [9]. R.Merton fikriga muvofiq, ijtimoiy voqelikni tartibga solish davomida ijtimoiy institutlarning shakllanishi sodir bo'ladi [10]. Uningcha, jamiyatdagi institutsional tizimlar yaxlit me'yorlar asosida tartiblangan. Ijtimoiy himoya – tizim sifatida aynan sotsiyetal bo'lib normativ hujjatlar asosida tashkillangan hamda tartiblangan. Ijtimoiy hayotda o'rnatilgan me'yorlar, qadriyatli mo'ljallar, maqsad va manfaatlarining ifodalanish usullari ijtimoiy himoyaga muhtojlikni mutassaddi subyektlar tomonidan obyektiv baholanishi muhim.

ASOSIY QISM

“Insoniy munosabatlar” maktabi vakillari F.Ryotlisberg va M.Folletlar ta’limotiga ko’ra, ijtimoiy ehtiyojlar va qadriyatlarining barqarorligi ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi [11]. Mehnat sotsiologiyasi tarmoq yo‘nalishida muhim bo‘g‘inni hosil qilgan ushbu yondashuv F.Teylorning “iqtisodiy inson” nazariyasiga ko’ra, insonni iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi mexanizm sifatida moddiy manfaat yordamida boshqarib borish g‘oyasini rad etadi. Aksincha, ijtimoiy muhofaza doirasida insonning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari uyg‘unlikda qondirilishi ayni muddao ekanligini ilgari surdilar.

“Ijtimoiy bozor xo‘jaligi” nazariyasini asoschilari L.Ryustov, V.Ryopke, F.Byole, V.Oyken va G.Grossman-Dertlar jamiyat barqarorligiga fuqarolarning ijtimoiy muhofazasini ta’minlaydigan erkin bozor tuzilmasini shakllantirish orqali erishish mumkin deb biladilar. Ijtimoiy bozor xo‘jaligi mohiyatan ijtimoiy himoya orqali ijtimoiy adolat tamoyillarining tantanasini nazarda tutadi. Sotsiologiyada ushbu g‘oya “umumfarovonlik davlati” ta’limoti bilan aloqador bo‘lib, unda taraqqiy etgan ijtimoiy himoya tizimi davlat budjetidan sohaga ajratilayotgan xarajatlar ulushining miqdori va ijro hokimiyatning mas’uliyatiga bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi [12].

Umumfarovonlik davlatida fuqarolik jamiyati institutlari taraqqiy etgan bo‘lib, shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy huquqlarini himoyalash davlatning ustuvor maqsadi hisoblanadi. Shunday bo‘lsa-da, ijtimoiy sohaning to‘liq davlat tasarrufida bo‘lishi va soha muammolarini hal qilishda boshqa tuzilmalar ishtirokining sustligi salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

Zamonaviy sotsiologiyada “ijtimoiy himoya” tushunchasi davlat siyosatining butun boshli yo‘nalishi sifatida olimlar va professional amaliyotchilar iste’moliga mustahkam kirib bordi. Uning mazmun-mohiyati “ijtimoiy” so‘zi atrofida quriladi. “Ijtimoiy” so‘zining o‘zagi arab tilida “to‘pladi”, “qo‘shdi” ma’nolarini anglatuvchi – “jama‘a” so‘ziga borib taqaladi. Unga “iy” qo‘shimchasi qo‘shilishi bilan “kishilik jamiyatiga doir”, “sotsial” kabi ma’nolar hosil bo‘ladi [13].

Boshqa manbada esa “ijtimoiy” tushunchasi mazmunan “inson va jamiyat hayotiga oid”, deb tasniflanadi. Ijtimoiy himoya yaxlit ma’noni anglatuvchi so‘z birikmasi sifatida “himoya” – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, tajovuzdan, hujumdan qo‘riqlash ma’nosini anglatadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa ushbu tushunchalar birmuncha kengaytirilgan mazmunda tavsiflangan. Xususan, “ijtimoiy” so‘zi – jamoa va jamiyatga oid. Inson va jamiyat hayotiga doir deb beriladi. “Himoya” so‘zining mazmuni arabchadan – kimsaning homiylikida bo‘lish; mudofaa, to‘siq, g‘ov; homiylik mazmunida izohlanib, turli sohalarida qo‘llanilish xususiyatiga muvofiq olti mazmunda tavsiflangan [14].

Demak, “ijtimoiy soha” jamiyat hayotiga tegishli soha bo‘lsa, uning negizida yotuvchi “ijtimoiy himoya” “insoniy ehtiyojlar va manfaatlarni muhofazalash” mazmunini anglatadi. Ushbu ta’riflar bizga “ijtimoiy himoya”ni yaxlit ma’noni tashuvchi ibora sifatida “kishilik jamiyatiga daxldor ijtimoiy tahlikalardan himoyalash” tarzida sotsiologik tavsiflash imkonini beradi. Ushbu tushuncha mohiyatan inson va jamiyatning ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash mazmunini hosil qiladi.

Ijtimoiy nochorlikni shakllantiruvchi omillar yig‘indisi, ya’ni ijtimoiy tahlikalar natijasida moddiy-ma’naviy yordam va xizmat turlariga bo‘lgan ehtiyojning keskin oshib ketish hodisasi sanaladi. “Ijtimoiy tahlika” tushunchasi nemis sotsiologi U.Bek tomonidan zamonlar o‘lchamidan holi kategoriya sifatida ilk bor tavsiflandi. Uningcha, jamiki davrlarda insoniyat “tahlika jamiyatlari” maqomida bo‘lib kelgan. Bularning ichida nochorlik, ijtimoiy himoyaga muhtojlikka tushirib yuboruvchi omillar yig‘indisi ham bo‘lib, himoalanishga bo‘lgan ehtiyoj va ijtimoiy himoya tizimining o‘zaro aloqadorligini shartlaydi. Sanoatlashuvga qadar ijtimoiy tahlikalar qanchalik ofat keltirmasin, ular “qismat”, “taqdir zarbasi” sifatida tabiat injiqliklari yoki ilohiyatga bog‘langan. Ammo, zamonaviy tahlikalar mohiyatan texnogen bo‘lib, ularning ijtimoiy ildizlari “mas’uliyat muammosining eksternalizatsiyasi”ni bloklaydi va chetdan tabiiy ofat sifatida ko‘ringan sabablar aslida insoniyat tomonidan chaqirilgan bo‘lib chiqadi [15].

Ijtimoiy tahlikalarning ijtimoiy tabiatini anglab yetishda nemis sotsiologi N.Lumannning “Tahlikani anglash” asari alohida ahamiyat kasb etdi. Uningcha, ijtimoiy tahlikalar ijtimoiy borliqning bosh xususiyati bo‘lib, istiqbolning noaniqligi uning mavjudligini shartlaydi [16]. Demak, tahlikalar ijtimoiy hodisa sifatida turli ijtimoiy institutlar va jarayonlarning makro va mikro disfunktsional holatini anglatadi. “Tahlika” va “xatar” tushunchalarini sotsiologik tavsiflashda tafovut mavjud. E.Giddensning tavsifiga ko‘ra, tahlika jamiyatdagi dinamik mobilizator rovida kishilarning turmush shart-sharoitlarini yaxshilash va himoalanishga undaydi [17].

Tahlika xatarining muqarrarligini anglatadi. Ushbu mazmunda tahlika xatar tushunchasiga nisbatan dominant maqomda bo‘ladi va o‘z atrofida “noaniqlik”, “tasodif”, “xavf-xatar”, “tahdid”, “ziyon” kabi xos tushunchalar doirasini hosil qiladi. Ijtimoiy tahlikalar muayyan ne‘matlar (zararni moddiy-ma’naviy qoplab berish, ijtimoiy himoyalash, ijtimoiy sug‘urta va boshqa shakllarda)ga da’vogarlikni shartlaydi. Xullas, ijtimoiy tahlikalar ijtimoiy muhtojlikning potensial manbasi va katalizatori bo‘lib, ulardan himoyalaniş yoki oqibatlarini bartaraf etish zarurati ijtimoiy himoya tizimini shartlaydi. Ijtimoiy tahlikalarga xos bo‘lgan belgilar quyidagilardan iborat:

- a) umumbashariylik - alohida individdan tortib jamiyat miqyosida talofat yetkazadi;
- b) istisnosiz daxldorlik - shunday muammolarni shakllantiradiki, ularni to‘liq bartaraf etish yoki yechimini topish zudlik bilan shartlanadi. Ularni minimallashtirish yoki boshqarish dolzarblashadi;
- v) jamiyatning ijtimoiy-kasbiy guruhlari uchun birdek mas’uliyat yuklanishi - ijtimoiy tahlikalarni boshqarish uning subyektlari o‘rtasida samarali hamkorlik bo‘lsagina natijador bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan metodologik yondashuvlar umumlashmasini xulosalab, biz “ijtimoiy himoya” ilmiy kategoriyasini ijtimoiy-gumanitar fanlarga xos konsepsiyalar kesishmasida hosil bo‘lgan “multidissiplinar simbioz” fonida o‘rganiluvchi “universal ilmiy obyekt” sifatida tavsiflaymiz. Ijtimoiy himoya tushunchasining tavsifi multidissiplinar simbiozda ishtirok etuvchi simbiotik fanlar evaziga yakunlangan mazmun kasb etadi. Bunda muhtojlik va uni keltirib chiqaruvchi omillar majmuali tarzda baholanishi ijtimoiy himoya choralarining aniq maqsadli tarzda amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Shu bois ijtimoiy himoya ijtimoiy hodisa sifatida turli fanlar kesimida ratsional empirik va pozitiv metodikalar asosida tadqiq etiladi.

XULOSA

Sanoatlashuvga qadar ijtimoiy tahlikalar qanchalik ofat keltirmasin, ular “qismat”, “taqdir zarbasi” sifatida tabiat injiqliklari yoki ilohiyatga bog‘langan. Ammo, industrial tahlikalar mohiyatan texnogen bo‘lib, ularning ijtimoiy ildizlari “mas’uliyat muammosining eksternalizatsiyasi”ni bloklaydi va chetdan tabiiy ofat sifatida ko‘ringan sabablar aslida insoniyat tomonidan chaqirilgan bo‘lib chiqadi.

Ijtimoiy himoya multidissiplinar tadqiqotlarning murakkab va ko‘p qirrali obyektini ekanligini ko‘rsatadi. Uning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, psixologik va demografik jihatlari bir-biridan ajratib olish hamda muayyan fan doirasida avtonom o‘rganish samaradorligi kutilgan natijani bermaydi.

Ijtimoiy himoyaning mohiyatini ochib berishda “ekzistensiallik”, “ijtimoiy davlat”, “ijtimoiy adolat”, “ijtimoiy taraqqiyot konsepsiyasi”, “tizimli yondashuv”, “ekotizimli yondashuv”, “insoniy ehtiyojlar piramidasi”, “ijtimoiy tahlikalar”, “demografik dialektika”, “raqamli model” kabi o‘nlab universal konsepsiyalar va ilmiy kategoriyalar insonni ijtimoiy munosabatlarning bosh sub’ekti va ob’ekti sifatida yaxlit qabul qilishni shartlaydi.

Multidissiplinar simbioz qarishmasidan hosil bo‘lgan ta’limot “Ijtimoiy himoya sotsiologiyasi” shartladi va uning metodologik va metodik asoslarini shakllantiradi.

Ijtimoiy himoya davlat ijtimoiy siyosatini ro‘yobga chiqaruvchi samarali mexanizm sifatida o‘zida ijtimoiy tahlikali vaziyatlarning oldini olish va uning oqibatlarini yumshatish yoki bartaraf qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy tamoyillar, metodlar, mexanizmlar va zahiralarni mujassam qiladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Mirziyoyev Shavkat. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021. – B. 67.
2. История социологии в Западной Европе и США / Отв. ред. Осипов Г.В. – М.: НОРМА-ИНФРА, 1999. – С. 50.
3. Вебер М. Избранные произведения / Пер. с нем.; сост., Ю.Н.Давыдова; – М.: Прогресс, 1990.
4. Сорокин П. Социальная стратификация и мобильность / Человек. Цивилизация. Общество. – М., 1992. – С. 302-373.
5. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. – М.: Наука, 1990. – С. 40.
6. Дюркгейм Э. Самоубийство. – СПб., 1998; Дюркгейм Э. Моральное воспитание / пер. с фр., А.Б.Гофмана. – М.: ВШЭ, 2021. – С. 456.
7. Mayo E. The social problems of industrial civilization. – London, 1945. – P. 59.

8. Кейнс Д. Общая теория занятости, процента и денег. – М., 1996.
9. Парсонс Т. Социальная система. – М.: Академический проект, 2018. – С. 529.
10. Мертон Р. Социальная теория и социальная структура. – М.: Хранитель, 2006. – С. 521.
11. Ройк В. Основы социального страхования. – М.: АНКИЛ, 2005. – С. 46.
12. Самуэльсон П., Нордхаус В. Экономика. – М.: Лаборатория Базовых Знаний, 2000. – С. 412.
13. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 2-jild. – Toshkent: Universitet, 2003. – B. 158.
14. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I harfi / A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006-2008. – B. 531.
15. Beck U. from industrial Society to the Risk Society. // Theroy, culture and Society. February 1992. vol. 9. №1, - P. 97-123.
16. Луман Н. Понятие риска/ THESIS. 1994. №5. – С. 135-160.
17. Гидденс Э. Судьба, риск и безопасность. // THESIS. 1994. №4.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000